XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 5 - yanvar VI-41-1-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati Boysun tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qounining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 273/6-41-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Boysun tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabridagi O‘RQ-742-son “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2021-yil 31-dekabrdagi VI-41-150-8-0-K/21-sonli qarorlari ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Boysun tuman mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 68,5 mlrd. so‘m xarajatlari 142,6 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 74.1 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun mahalliy byudjeti daromadlar prognozi ko‘rsatkichi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetidan 2022-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2022-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1,3 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

9. 2022-yil tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 698,4 mln so‘m 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2022-yil xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetni boshqarishda xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

- sement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- yig‘imlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig‘i;

- yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-elektr stansiyalaridan boshqa to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana sotuvi uchun aksiz solig‘i;

- davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Normamatov, tuman moliya bo‘limi mudiri T.Jumayev, tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Akramov tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Akramov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Akramov), Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (M.Jo‘rayev) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Akramov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi (Sh.Toshtemirov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi boshlig‘i A.Safarov tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Akramov bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (S.Jo‘raqulova), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

-mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

-Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

-mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi,

tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin.

19. Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **A.Ch.Jo'rayev**

Халқ депутатлари Бойсун туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
1-илова

Boysun tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**68533398**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	716000
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar (aylanmadan olinadigan solik)	5799000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22078000
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	21992098
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	2918000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4740000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2818000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1234000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5212000
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	755000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	86500
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	176000
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	2505000
17	Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar	421800

Халқ депутатлари Бойсун туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun Boysun tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**142649682**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	142649682
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
1.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**7429682**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7429682
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**5350652**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5350652
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**47450316**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47450316
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**1475260**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1475260
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Jismoniy tarbiya va sport**	**1040267**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1040267
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**802206**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	802206
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Veterinariya bo‘limi**	**1274373**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1274373
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari**	**237630**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	237630
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**46638356**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46638356
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1345117**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1345117
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**848481**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	848481
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**9846414**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9846414
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13.	**Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari**	**8262659**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8262659
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**28321**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	28321
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15.	**Fuqarolar tashabbusli jamgarmasi**	**6792842**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6792842
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16.	**Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	**3827106**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3827106
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Бойсун туман Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
3-илова

Soliqlar va yig‘imlardan tuman mahalliy byudjetiga 2022-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yagona soliq to‘lovi	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari
11	Boysun tumani	100	100	50	50	40	100	100	100	50	100	100	100

Халқ депутатлари Бойсун туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
4-илова

2022-yil uchun tuman byudjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**68533398**	**142649682**
Boysun tumani	68533398	142649682

Халқ депутатлари Бойсун туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
5-илова

Boysun tuman mahalliy byudjetiga 2022-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI	**74116284**
shundan	
Boysun tumani	74116284

Халқ депутатлари Бойсун туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-41-1-8-110-K/22-сон қарорига
6-илова

2022 yilda tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**698450**
	shundan	
1	Boysun tumani	**698450**